

Termiz shahrida “Yoshlar daftari” jamg’armasidan ko’mak ko’rsatilgan yoshlar bilan uchrashuv o’tkazildi



Termiz shahrida “Yoshlar daftari” jamg’armasidan ko’mak ko’rsatilgan yoshlar bilan uchrashuv o’tkazildi

Bugun, 22-dekabr kuni 12-umumiy o’rta ta’lim maktabida shahar hokimi O’ktam To’raevning “Yoshlar daftari” jamg’armasidan ko’mak ko’rsatilgan yoshlar bilan uchrashuvi bo’lib o’tdi.

Unda shaharning 1-sektor hududida joylashgan mahallalar yoshlari, yoshlar yetakchilari hamda mutasaddi tashkilot rahbarlari ishtirok etishdi.

Muloqot davomida yoshlar jamg’armasidan ko’mak ko’rsatilgan yoshlarning mulohazalari va kelgusidagi rejalari to’g’risidagi fikrlari tinglanib, tegishli tavsiyalar berildi.

Uchrashuvda oliy ta'limda tahsil olayotgan yoshlarning kontrakt to'lovi masalasidagi, shuningdek, davolanish va imtiyoz asosida operatsiya xarajatlariga yordam berish hamda moddiy yordam so'rab qilgan murojaatlarini tegishli tartibda ijobiy hal etilishi belgilandi.

Shuningdek, ijrosi muddat talab qilinadigan murojaatlar yuzasidan mas'ullarga topshiriqlar berilib, bajarilishi nazoratga olindi.






Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

